



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(5)

2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 114 sahifa,
16-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Tinglovchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishda notiqlik madaniyatini shakllantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari	10
<i>Fazliddin Abdunabiyevich Abdurazaqov</i>	
Professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish yo'llari	15
<i>Maxmudov Qudratbek Shavkat o'g'li</i>	
Orfografik kompetensiyaning mohiyati va boshlang'ich sinflarda shakllanish bosqichlari	21
<i>Abduvaliyeva Nodira Alisherovna, Mo'minjonova Gulnoraxon Abdupatto qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda uch o'lchamli vizualizatsiyalarning boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati	25
<i>Nabijonova Feruza Valijon qizi</i>	
Loyiha texnologiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy tashabbuskorlikni rivojlantirish mazmuni	28
<i>O'rinova Nilufar Muxammadovna</i>	
Sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asar bilan ishlashning kompetensiyaviy yondashuv asosidagi metodikasi	32
<i>Qilichova Billura Yorqinxuja qizi, Homidov H. K.</i>	
Kasbiy-kommunikativ madaniyat fenomenining pedagogik talqini va rivojlanish tendensiyalari	37
<i>Tashpulatova Nodira Olimjon qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv	41
<i>Umbarova Nasiba Xolboy qizi</i>	
Xorijiy tillarni o'rganishda shaxs nutqining shakllanishida psixolingvistikaning ahamiyati	44
<i>Ahmedov Shavkat Asadilloevich, Ataboev Navruz Ilhombek o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi (PIRLS dasturi misolida)	47
<i>Abduraxmanova Charos Burxanovna</i>	
Lesson Planning in English Language Teaching at Technical Universities	51
<i>Aitbaeva Nursuliu Tairbekovna</i>	
Lingvistik intellekt asosida individual o'qitish yondashuvining samaradorligi	55
<i>Allanazarova Sadoqat Azimovna</i>	
Xorij tadqiqotlarida zamonaviy oila transformatsiyasida farzandlar taraqqiyotining ijtimoiy-psixologik asoslari	59
<i>Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna</i>	
Теоретико-методологические подходы к изучению эмоциональных концептов в литературе: (на материале английских и немецких фразеологизмов)	63
<i>Сайёра Улашевна Тагаева, Азиза Анкаевна Уразкулова</i>	
The Importance of Forming a Schedule for High School Students	67
<i>D. T. Atabayeva, X. I. Abduraymova</i>	
Milliy cholg'u ansambllari orqali o'quvchilar musiqiy dunyoqarashini shakllantirish	70
<i>Dadamirzayeva Gulshanoy To'lanjon qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga yondashuvning texnologik xususiyatlari ...	75
<i>Jumanov Sherzod Saloyevich</i>	
Adabiyot darsliklari uchun yangi o'zbek adabiyoti namunalarini saralashning ilmiy-metodik asoslari	78
<i>Musaboyeva Zulfira Iqboljon qizi</i>	
Maktab geometriyasida ko'pyoqlilar mavzusini o'rganishning innovatsion usullari	83
<i>Pirlepesov Umrbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Generativ AI vositalarining mustaqil ta'lim jarayonidagi didaktik funksiyalari	86
<i>Qahramonova Xumora Qahramonovna</i>	
O'quvchi-sportchilar uchun individual mashg'ulot yuklamalarini avtomatik rejalashtirish va optimallashtirish imkoniyatini yaratish ahamiyati	91
<i>Qosimov Faxriddin Jo'raqulovich</i>	



Когнитивный диссонанс как социально-психологический феномен в контексте высшего образования: теоретический анализ	95
Мансурова Гульмира Рафаэловна	
Регуляторный произвол или необходимый порядок? Влияние новых регуляторных механизмов на свободу расследовательской журналистики	101
Рауфова Озода	
Qizlar tarbiyasida mahalla–oila–maktab hamkorligi mexanizmlari	105
Choriyeva Dildora Ismat qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini individuallashtirishning samaradorligi: kompetensiyaviy yondashuv asosida	109
Tangriyev Abdulkarim Tovashevich	



ORFOGRAFIK KOMPETENSIYANING MOHIYATI VA BOSHLANG'ICH SINFLARDA SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Abduvaliyeva Nodira Alisherovna
Farg'ona davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Mo'minjonova Gulnoraxon Abdupatto qizi
Farg'ona davlat universiteti 2-kurs magistranti

ORCID: 0009-0004-7590-2364

Annotatsiya: Mazkur maqolada orfografik kompetensiyaning nazariy-metodologik asoslari, uning lingvistik hamda didaktik mohiyati, shuningdek, boshlang'ich ta'lim tizimida shakllanish bosqichlari izchil va tizimli ravishda tahlil etiladi. Orfografik kompetensiya til o'qitish jarayonining ajralmas komponenti sifatida o'quvchilarning savodxonlik darajasini belgilovchi muhim omillardan biri ekani ilmiy dalillar asosida yoritiladi. Tadqiqot doirasida ushbu kompetensiyaning tarkibiy tuzilmasi fonetik, morfologik, leksik va grafik bilimlarning o'zaro integratsiyasi asosida shakllanishi nuqtayi nazaridan ochib beriladi.

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida orfografik ko'nikma va malakalarni rivojlantirishning bosqichma-bosqich mexanizmi asoslab berilgan. Jumladan, savod o'rgatish bosqichida tovush va harf o'rtasidagi munosabatni anglash, keyingi bosqichlarda esa imlo qoidalarini ongli ravishda o'zlashtirish hamda ularni yozma nutqda amaliy qo'llash jarayonlari ilmiy jihatdan izohlanadi. Shu bilan birga, o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlari, rivojlanish darajasi va nutqiy faoliyatining o'ziga xos jihatlari orfografik kompetensiyaning shakllanishiga ta'sir etuvchi muhim omillar sifatida talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: orfografik kompetensiya, imlo savodxonligi, boshlang'ich ta'lim, savod o'rgatish, yozma nutq, lingvistik bilimlar, fonetik tamoyil, morfologik tamoyil, didaktik yondashuv, interaktiv metodlar, nutqiy faoliyat, pedagogik texnologiyalar, o'quv jarayoni, imlo qoidalari, metodik ta'minot.

Abstract: This article examines the theoretical and methodological foundations of orthographic competence, its linguistic and didactic essence, as well as the stages of its formation within the primary education system in a consistent and systematic manner. Orthographic competence is substantiated as an integral component of language teaching, playing a crucial role in determining students' literacy levels. Within the scope of the study, the structural components of this competence are analyzed through the integration of phonetic, morphological, lexical, and graphic knowledge.

The article also provides a well-grounded step-by-step mechanism for the development of orthographic skills and abilities in primary school students. In particular, the process begins with the understanding of sound-letter relationships during the initial literacy stage, followed by the conscious acquisition of spelling rules and their practical application in written speech at later stages. Furthermore, individual psychological characteristics, developmental levels, and specific features of students' speech activity are interpreted as significant factors influencing the formation of orthographic competence.

Key words: orthographic competence, spelling literacy, primary education, literacy instruction, written speech, linguistic knowledge, phonetic principle, morphological principle, didactic approach, interactive methods, speech activity, pedagogical technologies, educational process, spelling rules, methodological support.

Аннотация: В данной статье последовательно и системно рассматриваются теоретико-методологические основы орфографической компетенции, её лингвистическая и дидактическая сущность, а также этапы её формирования в системе начального образования. Орфографическая компетенция обосновывается как неотъемлемый компонент обучения языку, играющий важную роль в определении уровня грамотности учащихся. В рамках исследования структура данной компетенции раскрывается с позиции интеграции фонетических, морфологических, лексических и графических знаний.

В статье также обоснован поэтапный механизм формирования орфографических навыков и умений у учащихся начальных классов. В частности, на этапе обучения грамоте особое внимание уделяется осмыслению соотношения звука и буквы, на последующих этапах – сознательному усвоению орфографических правил и их практическому применению в письменной речи. Кроме того, индивидуально-психологические особенности учащихся, уровень их развития и специфика речевой деятельности рассматриваются как значимые факторы, влияющие на формирование орфографической компетенции.

Ключевые слова: орфографическая компетенция, орфографическая грамотность, начальное образование, обучение грамоте, письменная речь, лингвистические знания, фонетический принцип, морфологический принцип, дидактический подход, интерактивные методы, речевая деятельность, педагогические технологии, образовательный процесс, орфографические правила, методическое обеспечение.

KIRISH

Ta'lim tizimida ona tili fanining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda savodxonlik ko'nikmalarini shakllantirish hamda yozma nutq madaniyatini rivojlantirishdan iboratdir. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning keyingi o'quv faoliyati uchun mustahkam lingvistik poydevor vazifasini bajaradi. Shu sababli mazkur bosqichda o'quvchilarning orfografik bilim, ko'nikma va malakalarini izchil shakllantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Hozirgi globallashuv va axborot almashinuvi kuchaygan davrda yozma nutqning aniqligi, savodxonligi hamda me'yorlarga muvofiqligi shaxsning kommunikativ kompetensiyasini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, orfografik kompetensiya nafaqat to'g'ri yozish qoidalarini bilish, balki ularni amaliy nutq jarayonida ongli ravishda qo'llay olish qobiliyatini ham anglatadi. Orfografik kompetensiya o'quvchining yozma nutqida imlovii me'yorlarga amal qilishi, fonetik, morfologik va grammatik bilimlarni integratsiyalashgan holda qo'llashi bilan xarakterlanadi.

Boshlang'ich sinflarda orfografik kompetensiyani shakllantirish jarayoni murakkab psixologik-pedagogik hamda metodik bosqichlarni o'z ichiga oladi. Bu jarayonda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlari, nutqiy tajribasi, tafakkur darajasi hamda til materialini qabul qilish imkoniyatlari alohida ahamiyat kasb etadi. K. Qosimovning fikricha, boshlang'ich sinflarda orfografik savodxonlik muntazam mashqlar va ongli o'zlashtirish asosida shakllanadi [1, 45–52-b.]. Orfografik ko'nikmalarni shakllantirishda nazariy bilim bilan amaliy mashqlar uyg'unligi, interfaol metodlardan foydalanish, muntazam takrorlash va nazorat ishlari muhim omil hisoblanadi.

Mazkur maqolada orfografik kompetensiyaning pedagogik va lingvodidaktik mohiyati yoritilib, uning boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllanish bosqichlari ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, orfografik kompetensiyani rivojlantirishning samarali usul va vositalari hamda ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyati yuzasidan fikr-mulohazalar bayon etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Orfografik kompetensiyani shakllantirish masalasi yuzasidan ko'plab tilshunos, metodist va pedagog olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Mazkur tadqiqotlarda o'quvchilarning yozma savodxonligini rivojlantirish, imlo qoidalarini o'rgatish metodlari hamda boshlang'ich ta'limda orfografik ko'nikmalarni shakllantirishning samarali usullari yoritilgan.

Jumladan, metodist olim K. Qosimovning "Ona tili o'qitish metodikasi" nomli asarida boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limining mazmuni, savod o'rgatish jarayoni hamda imlo qoidalarini o'qitish metodlari ilmiy asosda tahlil qilingan. Olimaning ta'kidlashicha, o'quvchilarda orfografik savodxonlikni shakllantirish muntazam mashq va ongli o'zlashtirish asosida amalga oshiriladi. Ushbu manba tadqiqot mavzusining metodik asoslarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. T. G'afforova, E. Shodmonov va G'. Eshboyevlar orfografik ko'nikmalarni rivojlantirishda fonetik tahlil va amaliy mashqlarning ahamiyatini alohida ta'kidlaydilar [2, 67–75-b.].

Shuningdek, T. G'afforova, E. Shodmonov va G'. Eshboyev hammuallifligidagi "Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi" asarida boshlang'ich ta'limda imlo ustida ishlashning bosqichlari, diktant turlari hamda yozma nutqni rivojlantirish usullari keng bayon etilgan. Mualliflar orfografik ko'nikmalarni shakllantirishda fonetik tahlil, ko'rgazmalilik va amaliy mashqlarning ahamiyatini alohida ta'kidlaydilar. Mazkur adabiyot maqolaning amaliy-metodik yo'nalishini ochib berishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.



Tilshunos olim A. G'ulomovning o'zbek imlosiga oid ilmiy qarashlarida orfografik me'yorlarning lingvistik asoslari, yozuv tamoyillari va imlo qoidalarining til taraqqiyotidagi o'rni yoritilgan. Olim orfografiyani adabiy til me'yorining muhim tarkibiy qismi sifatida baholab, to'g'ri yozuv madaniyatini shakllantirish masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Ushbu qarashlar orfografik kompetensiyaning nazariy mohiyatini tushuntirishda muhim ilmiy asos vazifasini bajaradi. A. G'ulomov orfografiyani adabiy til me'yorining muhim tarkibiy qismi sifatida baholaydi [3, 38–44-b.].

Pedagog olim B. To'xliyevning ona tili ta'limiga oid ilmiy ishlarida kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va yozma nutqini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Olimning fikricha, orfografik kompetensiya faqat qoida bilish emas, balki uni nutq faoliyatida to'g'ri qo'llash malakasini ham o'z ichiga oladi. Bu yondashuv zamonaviy ta'lim talablari bilan uzviy bog'liqdir. B. To'xliyev kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va nutqini rivojlantirish zarurligini qayd etadi [4, 81–86-b.].

Bundan tashqari, rus pedagog-psixologi L. S. Vigotskiyning ta'lim va tafakkur rivojlanishiga oid nazariyalari ham mazkur tadqiqot uchun metodologik ahamiyatga ega. Olim bolaning yozma nutqi va tafakkuri bosqichma-bosqich rivojlanishini asoslab bergan bo'lib, bu jarayon orfografik ko'nikmalarni shakllantirishda ham muhim omil hisoblanadi.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, orfografik kompetensiyani shakllantirish jarayoni lingvistik, psixologik va pedagogik omillar uyg'unligida amalga oshadi. N. Mahmudov yozma nutq madaniyatining savodxonlikni shakllantirishdagi o'rnini alohida ko'rsatib o'tadi [5, 23–31-b.]. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda imlo ustida tizimli ishlash, kompetensiyaviy yondashuv va amaliy mashqlar asosida tashkil etilgan ta'lim o'quvchilarning yozma savodxonligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida bir qator ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Jumladan:

1. Nazariy tahlil metodi orqali orfografik kompetensiyaning mohiyati, uning lingvistik va pedagogik asoslari hamda boshlang'ich ta'limdagi o'rni yuzasidan ilmiy adabiyotlar o'rganildi va tahlil qilindi.
2. Qiyosiy-tahliliy metod yordamida turli olimlarning orfografik kompetensiyaga oid ilmiy qarashlari solishtirilib, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlandi.
3. Pedagogik kuzatish metodi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqidagi imloviy xatolar, orfografik ko'nikmalarni egallash jarayoni hamda o'quv faoliyatidagi o'zgarishlar kuzatildi.
4. Amaliy tajriba metodi orqali orfografik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan mashqlar, interfaol topshiriqlar va didaktik usullarning samaradorligi sinovdan o'tkazildi.
5. Tahlil va umumlashtirish metodi vositasida olingan natijalar tizimlashtirilib, ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Tadqiqot metodlarining o'zaro uyg'un holda qo'llanilishi orfografik kompetensiyaning shakllanish bosqichlarini ilmiy asosda yoritish hamda boshlang'ich sinflarda uni rivojlantirishning samarali yo'llarini aniqlash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida orfografik kompetensiyani shakllantirishning pedagogik va metodik asoslari o'rganildi hamda amaliy kuzatishlar asosida tegishli xulosalar chiqarildi. Kuzatishlar natijasida o'quvchilarning orfografik savodxonligi ko'p jihatdan ta'lim jarayonining qanday tashkil etilishiga, qo'llanilayotgan metod va usullarning samaradorligiga hamda o'qituvchining metodik mahoratiga bog'liq ekanligi aniqlandi.

Orfografik kompetensiyani shakllantirishda bosqichma-bosqich yondashuv muhim ahamiyat kasb etishi kuzatildi. Dastlab o'quvchilarda tovush va harf munosabatlarini anglash, bo'g'inlab yozish, so'z tarkibini farqlash kabi elementar ko'nikmalar shakllangan bo'lsa, keyingi bosqichlarda imlo qoidalarini ongli qo'llash, grammatik tahlil asosida yozish hamda mustaqil yozma nutq yaratish malakalari rivojlandi. H. Jamolxonov o'zbek adabiy tilining fonetik va grammatik asoslarini yoritadi [6, 112–125-b.]. Bu esa orfografik kompetensiyaning oddiy ko'nikmadan murakkab amaliy faoliyatga tomon rivojlanib borishini ko'rsatadi.

Amaliy mashg'ulotlar jarayonida diktant, ko'chirib yozish, izohli yozuv, lug'at ishlari hamda interfaol topshiriqlardan muntazam foydalanish o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, o'yin texnologiyalari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning darsga qiziqishini kuchaytirib, imlo qoidalarini tezroq o'zlashtirishiga yordam berdi. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, vizual vositalar, jadval va multimedia materiallari qo'llanilgan darslarda o'quvchilarning imloviy xatolari sezilarli darajada kamaygan.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan asosiy orfografik xatolar fonetik tamoyilga asoslangan yozuvlarda, jarangli va jarangsiz undoshlar imlosida, qo'shimchalar yozi-lishida hamda tutuq belgisi bilan bog'liq holatlarda ko'proq namoyon bo'ladi. Bu holat o'quvchilarning fonetik va grammatik bilimlari yetarli darajada mustahkamlanmaganligi bilan izohlanadi. Shu sababli orfografik kompeten-siyani rivojlantirishda fonetika, grammatika va nutq o'stirish ishlari o'zaro integratsiyada olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, tadqiqot natijalari kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va yozma nutq faoliyatini rivojlantirishda samarali ekanligini ko'rsatdi. O'quvchilar qoidalarni shunchaki yodlashdan ko'ra, ularni amaliy vaziyatlarda qo'llash orqali mustahkamroq o'zlashtirishi aniqlandi. Bu esa zamonaviy pedagogik texnologiyalarning orfografik kompetensiyani rivojlantirishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari boshlang'ich sinflarda orfografik kompetensiyani shakllantirish uzluksiz, tizimli va maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni talab etishini ko'rsatdi. O'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos metodlardan foydalanish, nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish hamda interfaol ta'lim texnologiyalarini qo'llash yozma savodxonlikni oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot davomida orfografik kompetensiyaning mohiyati, uning boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllanish bosqichlari hamda uni rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, orfografik kompetensiya o'quvchilarning yozma savodxonligini ta'minlovchi muhim tarkibiy qism bo'lib, u tilning fonetik, leksik va grammatik bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llash orqali shakllanadi.

Aniqlanishicha, boshlang'ich ta'lim bosqichi orfografik ko'nikmalarni rivojlantirishda eng muhim davr hisoblanadi. Ushbu bosqichda o'quvchilarda tovush va harf munosabatlarini anglash, imlo qoidalarini o'zlashti-rish, yozma nutqda adabiy til me'yorlariga amal qilish kabi malakalar bosqichma-bosqich shakllanadi. Shu bois ta'lim jarayonida izchillik, tizimlilik va oddiydan murakkabga tamoyillariga amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida qo'llangan interfaol metodlar, didaktik o'yinlar, lug'at ishlari, diktant va amaliy mashqlar o'quvchilarning orfografik savodxonligini oshirishda samarali vosita ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, kompeten-siyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, qoidalarni ongli ravishda qo'llashi va yozma nutq faoliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Shuningdek, tadqiqot natijalari orfografik kompetensiyani shakllantirishda o'qituvchining metodik mahorati, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish hamda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatla-rini hisobga olish zarurligini ko'rsatdi. Chunki samarali tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning yozma nutqidagi imloviy xatolarni kamaytirish va savodxonlik darajasini oshirishga bevosita ta'sir etadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda orfografik kompetensiyani shakllantirish uzluksiz va maqsadli pedagogik faoliyatni talab qiladigan murakkab jarayon hisoblanadi. Mazkur jarayonda nazariy bilim va amaliy mashqlar uyg'unligi, innovatsion metodlardan foydalanish hamda o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash yuqori samaradorlikka erishishning muhim omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. - Toshkent: Noshir, 2009. - 352 b.
2. G'afforova T., Shodmonov E., Eshboyev G'. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. - Toshkent: Ilm Ziyoy, 2013. - 224 b.
3. G'ulomov A., Qosimova K. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. - Toshkent: O'qituvchi, 2002. - 160 b.
4. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. - 184 b.
5. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. - Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashri-yoti, 2007. - 192 b.
6. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent: Talqin, 2005. - 408 b.
7. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 2004. - 104 b.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida"gi qarori. - Toshkent, 1995. - 24 b.
9. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standarti. - Toshkent, 2021. - 56 b.
10. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. - Toshkent: O'zbekiston, 2002. - 272 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.